# So‘x tuman xalq ta’limi bo‘limi tasarrufidagi 12 ta umumiy o‘rta ta’lim maktablariga malakali o'qituvchilar ishga taklif qilinadi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 yanvardagi PQ-4940-sonli “Olis hududlardagi byudjet tashkilotlariga malakali mutaxassislarni jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorining 8.1-bandi ijrosini ta’minlash bo‘yicha Olis va chekka hududlarda joylashgan ta’lim muassasalarida oliy ma’lumotli mutaxassisga ehtiyoj bo‘yicha bo‘sh ish o‘rinlari yuzasidan ma’lumotlarni har oy yakuni bo‘yicha keyingi oyning 5-kuniga qadar www.ustozfondi.uz/#registration saytida joylashtirib borilmoqda.

1. Farg‘ona viloyati xalq ta’limi boshqarmasida shahar, tuman xalq ta’limi bo‘limi mudirlari va kadrlari bo‘yicha mas’ul xodimlar ishtirokida kengaytirilgan yig‘ilish o‘tkazildi. Oliy ma’lumotli kadrlarga ehtiyoj mavjud bo‘lgan olis va chekka hududlarda joylashgan ta’lim muassasalariga ishga jalb etish bo‘yicha ustamalar, bir martalik to‘lovlar, xizmat uyi bilan ta’minlash yoki ijara pulini to‘lab berilishi bo‘yicha kerakli tushuntirishlar berildi.

2. So‘x tuman xalq ta’limi bo‘limi tasarrufidagi 12 ta umumiy o‘rta ta’lim maktablarida bo‘sh ish o‘rinlari mavjud:

3-umumiy o‘rta ta’lim maktabida bo‘sh ish o‘rni - fizika fani 12 soat, musiqa madaniyati fani 7 soat,
7-umumiy o‘rta ta’lim maktabida geografiya fani 12 soat, musiqa madaniyati fani 11 soat,
9-umumiy o‘rta ta’lim maktabida davlat tili fani 21 soat, ingliz tili fani 22 soat, tarix fani 20 soat, musiqa madaniyati fani 10 soat,
11-umumiy o‘rta ta’lim maktabida ona tili fani 20 soat, ingliz tili fani 35 soat, geografiya fani 15 soat,
14-umumiy o‘rta ta’lim maktabida davlat tili fani 40 soat, ingliz tili fani 45 soat,
15-umumiy o‘rta ta’lim maktabida ingliz tili fani 15 soat, tarix fani 17 soat, musiqa madaniyati fani 12 soat,
19-umumiy o‘rta ta’lim maktabida davlat tili fani 18 soat, ingliz tili fani 20 soat, tarix fani 25 soat, informatika va axborot texnologiyalari fani 21 soat,
23-umumiy ta’lim maktabida tarix fani 18 soat, informatika fani 22 soat, musiqa madaniyati fani 10 soat,
24-umumiy o‘rta ta’lim maktabida davlat tili fani 17 soat, ingliz tili fani 18 soat, informatika fani 20 soat,
1-IDUM kimyo fani 4 soat, informatika fani 7 soat,
3-IDUM ingliz tili fani 24 soat, informatika fani 4 soat, musiqa madaniyati fani 9 soat,
29-umumiy o‘rta ta’lim maktabida davlat tili fani bo‘yicha 21 soat bo‘sh ish o‘rinlari mavjud.

2022-08-09 17:33:00